



TA'LIMDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Guluzraxon Komiljonova Nizomjon qizi

Qo'qon universiteti "Ta'lism" kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida bayon qilingan. Interfaol metodlar, ularning afzalliklari haqida fikr yuritilgan va ta'lism jarayonida qo'llash haqida tushuncha va tavsiyalar berilgan. O'quv jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan samarali bir necha metodlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lism-tarbiya, metod, interfaol metodlar, ta'lismtexnologiyasi, dars.

Kirish: Ta'lism-tarbiya jarayoni uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Ta'lism muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni har tomonlama shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalarni amaliyatga tatbiq etish, mamlakatimiz ta'lism tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lism muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, pedagoglarning ilmiy salohiyati hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq. Ushbu faoliyat bilan bog'liq jarayonda o'qitish shakllaridan foydalananiladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyatga tatbiq etish muhim hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida zamonaviy o'qitish tizimini tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri bu - o'qitish jarayoni sifat va samaradorligini oshiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lism beruvchidan yuqori pedagogik mahoratni hamda zamonaviy o'qitish jarayoniga nisbatan kreativ yondashuvdir.

Har bir ta'lism muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi pedagoglar ta'lism jarayonini sifat va samaradorlikni oshirish uchun o'z sohasini yaxshi bilishi bilan bir qatorda innovatsion o'qitish texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirish yo'llari hamda pedagogik kompetensiya ega bo'lishi kerak. O'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar va faol o'qitish omillaridan foydalananish, yangi ishlab chiqarilavotgan o'qitishning ta'lism vositalarini tatbiq qilish, ta'lism oluvchini ishslashga chorlash, yuqori pedagogik tajribalardan ta'lism berishning turli usullaridan keng foydalananish maqsadga muvofiqidir.¹

Asosiy qism

Dars - ta'lism jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo'lib, unda sinf dars tizimining barcha xususiyatlari aks etadi.² Dars jarayonini qanday boyitish esa pedagogning mahoratiga bog'liq albatta. Zamonaviy ta'lismni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim,

¹ Zarif Rayimkulovich Bobokulov, Sobir Toyirovich Sanayev, Xusnidin Holiquovich Xonqulov Ta'lismning zamonaviy pedagogik texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Samarqand sh. Tong k., 3-b

² Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -204 b.



ko'nikma, malaka darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lif jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi. Tashkillanayotgan har bir darsning pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini ishga solib, ilg'or pedagogik tajribadan foydalanishi va eng muhimi metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lif - tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda va deyarli barcha o'qituvchi, pedagoglar dars mashg'ulotlarida interfaol metodlardan borgan sari keng foydalanib kelmoqdalar.

"Interfaol" tushunchasi ingliz tilida "interact" (rus tilida "interaktiv") ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan "inter" - o'zaro, ikki taraflama, "act" - harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi.³

Interfaol metod - ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.⁴

Interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, sog'lom muloqot, o'z fikrini bayon qilish va uni asoslagan holda himoya qila bilish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish, munozara, babs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib borishi hamda o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish kuzatiladi.

Interfaol metod turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va oldindan tayyorgarlik ko'rildi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash darsning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Interfaol darslarda ishtirop etish uchun o'quvchilarning tayyorliklari talab etiladi va o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirop etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat. Quyida interfaol metodlardan bir nechta namuna ko'rishimiz mumkin.

"Beshinchisi (oltinchisi, yettingchisi, ...) ortiqcha strategiyasi"⁵

O'quvchi (talaba)larning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan tushunchalar tizimini shakllantirish;
2. Hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'limgan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
3. O'quvchi (talaba)larga mavzuga taalluqli bo'limgan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
4. O'quvchi (talaba)larni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishi, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslash talab qilinadi).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata bilish va asoslay olish, o'quvchi (talaba)larda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini dalillash,

³ Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Ni2:omiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 4 bet.

⁴ <http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar/>

⁵ Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Ni2:omiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 16 bet.



tengdoshlarning fikrlari va shaxsiy g‘oyalarni o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantirishga imkon beradi.

“Kubik” grafik organayzeri⁶

Metod turli vaziyatlarni hosil qilish orqali mavzuning o‘rganilishini osonlashtirishga xizmat qiladi. Kubikning oltita qirrasida o‘rganiladigan mavzu (muammo)ni chuqur tahlil qilishga yordam beradigan tushuncha (yo‘nalish)lar mavjud. Metod mohiyatiga ko‘ra kubikning oltita qirrasida quyidagi ko‘rsatmalar o‘z ifodasini topadi:

Izoh: “Kubikning olti qirrasidagi ko‘rsatmalar quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Tasvirlang! Predmetni diqqat bilan ko‘zdan kechirib, uning nimaligini tasvirib bering! Tasvirlash jarayonida predmetning rangi, shakli va hajmini aniq yoritishga e’tibor qarating!

2. Taqqoslang! Taqqoslash asosida predmetning nimaga o‘xshashi, nimadan keskin farqlanishini ayting!

3. Izohlang! Predmetning bunday tuzilma, hajm, shakl va rangga egaligining sabablarini tushuntiring! Predmet sizni nimalar haqida o‘ylashga majbur etayapti? Xayollaringizga erk bering! (Tasvirlangan predmetlar bir-birlariga o‘xshashi, bir-biridan keskin farqlanishi mumkin).

4. Tahlil qiling! Predmetning yasalish (yaratilish) jarayoni qanday? (Predmetning yasalishini bilishingiz shart emas, buni o‘ylab toping!).

5. Qo‘llang! Predmetdan siz hayotiy jarayonlarda foydalana olasizmi? Undan qanday foydalanishingiz mumkin?

6. Asoslang! Predmetning amaliy qiymatini belgilovchi fikrlaringizni asosjlang! Bu jarayonda ishonchli dalilllar topishga harakat qiling!

Metod o‘quvchi (talaba)larni muayyan muammo (mavzu)ni old tomondan turlicha yondashib, muhokama qilishga undaydi. Bu harakat muammo yechimini topishni tezlashtiradi.

“Olmos” texnologiyasi⁷

Texnologiya mavzuga doir tushunchalarni muhimligi, ahamiyatligiga ko‘ra turli darajalarda ifodalashga xizmat qiladi. Tushunchalar o‘zining muhimligi, ahamiyatliligi ko‘ra “Olmos” yoki “Yulduzcha” qirralari atrofiga, shuningdek, “Zina” hamda “Narvon”ga joylashtirishlari mumkin. Eng muhim (asosiy, yetakchi) tushunchalar “Olmos”, “Yulduzcha”ning o‘rtasiga yoki “Zina”, “Narvon”ning yuqori qismiga joylashtiriladi.

Dars mashg‘ulotda texnologiyani qo‘llash quyidagicha kechadi:

- O‘qituvchi o‘quvchi (talaba)larni juftliklarga ajratadi;
- Har bir juftlikka mavzuga doir o‘quv materialining 5 (6, 7, 8, 9) ga ajratilgan qismlari joylashtirilgan konvert berilib, ular orasidan tayanch tushunchalarni ajratish vazifasi topshiriladi;
- Juftliklar topshiriqni tamomlaganlaridan so‘ng, o‘qituvchi o‘quvchi (talaba)larni 6 nafardan iborat a’zosi bo‘lgan guruuga ajratadi;
- Guruhdagisi har bir juftlik o‘z yechimini qolgan ikkita guruh a’zolariga tushuntirib beradi;

⁶ Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. Tuzuvchilar: D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Ni2:omiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 37 bet.

⁷ Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. Tuzuvchilar: D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Ni2:omiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 48 bet.



- Guruh ichidagi juftliklar o‘z ishlari bilan sheriklarini tanishtirib bo‘lgach. guruh yagona fikr (xulosa)ga keladi;
- Har bir guruh o‘z xulosasi bilan boshqa guruhlarni tanishtiradi;
- Mashg‘ulot yakunida guruhlarni bir-birlarining ishlariga baho beradi;
- O‘qituvchi jamoa fikrini umumlashtirib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

Bu kabi metod, texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘qituvchi bir necha natijalarga erishadi, hamda o‘qituvchi uchun ham yengillik yaratib, uzundan-uzoq ma’ruza qilishdan oz bo‘lsa-da dam oladi.

Xulosa

Ta’kidlash lozimki, interfaol ta’lim metodlari O‘zbekistonda qadim zamonlardan beri ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilar hamda talabalar (o‘quvchi) bilan talaba (o‘quvchi)lar o‘rtasida muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo‘llab kelingan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol metodlar bir vaqtida bir nechta masalalarni hal etish imkoniyatini beradi. Asosiysi o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida emostional aloqalar o‘rnatalishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlab beradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.
2. Zarif Rayimkulovich Bobokulov, Sobir Toyirovich Sanayev, Xusnidin Holiquulovich Xonqulov Ta’limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand sh. Tong k., 172-b
3. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. Tuzuvchilar: D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Ni2:omiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 108 bet.
4. Madinabonus Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>
5. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
6. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.
7. Mirzaliyevna, S. Z., & Mashhura, X. (2023). PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 687-689.
8. Сангинова Г.Б. (2023). ЗНАЧЕНИЕ И МЕСТО НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Экономика и социум, (4-1 (107)), 840-846.
9. Сангинова Г.Б.. "ЗНАЧЕНИЕ И МЕСТО НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ" Экономика и социум, no. 4-1 (107), 2023, pp. 840-846.
10. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
11. Abduraxmonova, N. A. qizi. "BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA". Educational



Research in Universal Sciences, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11,
<http://eruz.uz/index.php/er/article/view/5507>.

12. Файзуллаева, Д. М., М. А. Ганиева, and И. Нематов. "Назарий ва амалий ўқув машғулотларда ўқитиш технологиялари тўплами/Мет. кўлл." Ўрта маҳсус, касб-хунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан-Т.: ТДИУ 137 (2013).
13. Файзуллаева, Д. М., Ганиева, М. А., & Нематов, И. (2013). Назарий ва амалий ўқув машғулотларда ўқитиш технологиялари тўплами/Мет. кўлл. Ўрта маҳсус, касб-хунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан-Т.: ТДИУ, 137.
14. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. Экономика и социум, (2-1 (93)), 24-26.
15. <http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar/>
16. Ochilidiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
17. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 83-87.
18. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 3.1 (2024): 83-87.
19. INNOVATIVE MODEL OF SHAPING STUDENTS' CREATIVE THINKING SKILLS IN PRIMARY EDUCATION IN THE PROCESS OF CREATING PROBLEM SITUATIONS AND ITS CONTENT. Innovativ achievements in skience 2022. Kalendarova Zarafshon KalbaevnaSenior Lecturer, Department of Education, Kokand University, Kokand, Fergana region.
20. Ramazonovich, K. S. (2023). BASKETBOLCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA JISMONIY VOSITA SIFATIDA HARAKATLI O 'YINLARNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 24(2), 124-128.02:37